



OILADA MULKIY VA SHAXSIY NOMULKIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHNING DISPOZITIV USUL VA VOSITALARI

SAYDIVALIYEVA XURSHIDA XODJIAKBAROVNA
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
"Oila va gender" ilmiy tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13371383>

ARTICLE INFO

Received: 10th August 2024
Accepted: 12th August 2024
Published: 14th August 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

Globalashuv jarayonlarida oilaviy shartnomalar er va xotin o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning samarali dispozitiv usul va vositasi sifatida ahamiyatga ega. Bunday kelishuvlar nikoh, mol-mulk va ota-ona munosabatlari bilan bog'liq turli masalalarni hal etishning moslashuvchan va individual vositalarini taqdim etadi. Ular er va xotinga birgalikda yashash shartlarini, mulkni taqsimlash va farzandlar tarbiyasida mas'uliyatni mustaqil ravishda belgilash imkonini beradi, bu esa nizolarni kamaytirishga va sud jarayonlarini soddalashtirishga yordam beradi.

Oilaviy shartnomalar huquqiy madaniyatning muhim elementi, qaysidir ma'noda ko'rsatkichi hamdir, shu bilan birga oilaviy munosabatlarni uyg'un va barqaror bo'lishiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan vositadir.

Oilaviy huquqiy shartnoma oilaviy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida alohida ahamiyatga egaligiga qaramay, bugungi kunga kelib nikohlanuvchilar tomonidan kam darajada tuzilganligi kuzatiladi. Bu borada oila huquqi nazariyasi va oila qonunchiligida o'rganilishi va tadqiq qilinishi lozim bo'lgan masalalar mavjud. Shu jumladan, oilaviy munosabatlarni tartibga solishda dispozitiv mexanizmlardan foydalanish va bu boradagi amaliyotni o'rganish ham muhim.

Yuridik adabiyotlarda, oilaviy munosabatlarni tartibga solish so'nggi yillarda o'zgarganligi haqida fikr yuritiladi. Jumladan, tartibga solishning hususiy metodining keng qo'llanilishiga imkon yaratilganligi, dispozitiv qoidalarning o'sganligi, oilaviy huquqiy munosabat sub'ektlarining o'z oilaviy munosabatlarini turli shartnomalar orqali tartibga solish huquqini berilganligi qayd etiladi¹. Bunda oilaviy huquqiy tartibga solish metodining amalda qo'llanilayotganligi kuzatiladi, munosabatlarga ta'sir qilishiga ko'ra ruxsat beruvchi, mustahkamlangan qoidalarning shakliga ko'ra imperativ xususiyatga egadir. Oilaviy huquqiy tartibga solishning ruxsat beruvchi hususiyati uning oilaviy munosabatlar sohasida munosabat ishtirokchilarini ehtiyojlarini qondiruvchi huquqiy vositalarga egaligida namoyon bo'ladi, ularga oilaviy huquqiy layoqat va konkret sub'ektiv huquqlar kiradi. Imperativlik esa,

¹ Муканова М.Ж. Арутюнян Е. Договоры и соглашения в семейном праве. Вестник КарГУ, 2009// <https://articlekz.com/article/14322>

qonunda huquq va majburiyatlar belgilanganligi uchun, shartnoma orqali taraflarga o'z huquq va majburiyatlarini belgilashga imkon berilmasligida ko'rinadi².

Oilaviy-huquqiy shartnomalar yuridik adabiyotlarda bir necha asos hamda mezonlarga ko'ra tasniflanadi. Xususan, S.Yu.Chashkova tasnifiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, *mulkiy xarakterdagi shartnomalarga* nikoh shartnomasi, er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risida kelishuv, qo'shimcha harajatlar to'g'risidagi shartnomalar, surrogat onalik shartnomasi, *nomulkiy xarakterdagi shartnomalarga* bolaning yashash joyini belgilash bo'yicha kelishuv, ota-ona boladan alohida yashaydigan ota(ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida kelishuv; *aralash* (xam mulkiy ham nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi): bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv, oila ko'rinishidagi bola uylarini tashkil qilish to'g'risidagi shartnomalarga ajratiladi. O.N.Nizamieva oilaviy munosabatlarni shartnomaviy huquqiy tartibga solish bu oila a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan qonun asosida va uning chegarasidan tashqarisida oilaviy mulkiy munosabatlar sohasida shartnoma va kelishuvlarni tuzgan holda lozim bo'lgan hulq atvor modelini belgilashning individual huquqiy tartibga solish turi, deb ta'riflaydi.

Oilaviy-huquqiy shartnomalar orasida mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalar alohida ahamiyatli hisoblanadi. Oila Kodeksida belgilangan normalar asosida ularga: er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish (27-modda), nikoh shartnomasi (29-modda), ota-ona va voyaga etmagan bolalar umumiy mol-mulkni vujudga keltirishi to'g'risida kelishuv (92-modda), aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (100, 118-moddalar, 17-bob) kiritish mumkin. Oila a'zolarining mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi shartnomalar quyidagi xususiyatlarga ega³:

*Birinchi*dan, qat'iy belgilangan predmet va sub'ektlar tarkibiga egaligi. Oilaviy huquqiy shartnoma tarafi bo'lib faqat er va xotin hamda boshqa oila a'zolari ishtirok etadilar.

*Ikkinchi*dan, oila a'zolari tomonidan tuzilgan shartnomalar huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi uchun mustaqil asos bo'lib xizmat qilmaydi. Biroq, bu ularning yangi huquq yoki majburiyatlarni keltirib chiqarishga mutlaqo qodir emasligini anglatmaydi. Shartnoma oila huquqida mustaqil yuridik fakt hisoblanmaydi, u mavjud oilaviy munosabatni o'zgartirishi yoki tugatishi yoxud oila a'zolarining huquq va majburiyatlarini muvofiqlashtirishi mumkin. Masalan, nikoh shartnomasida er va xotindan biriga qonuniy tarzda belgilab berilmagan mulkka shartnoma asosida foydalanish imkonini berishi mumkin⁴.

*Uchinchi*dan, oila huquqida shartnoma tuzish erkinligi ancha cheklangan bo'lib, erkinlik faqat shartnoma tuzish yoki tuzmaslik shartnomaviy munosabatga kirishish yoki kirishmaslik kabilarda namoyon bo'ladi. Oilaviy-huquqiy shartnoma shartlari oila qonunchiligi bilan belgilab berilgan doiradan chetga chiqmaydi. Oilaviy-huquqiy shartnomalarning barchasi ham oilaviy-huquqiy majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi.

²Александров И.Ф. Правовое регулирование семейных отношений: соотношение семейного и гражданского права. Автореф...канд.юр.наук. 9 -с.

³Багрова Н.В. Унификация договорного регулирования имущественных отношений в семье//Правовое регулирование договорных отношений в России: проблемы и перспективы развития.2021.С.199-209.// [хттпс://www.елибRARY.ru/итем.асп?ид=46670574](https://www.елибRARY.ru/итем.асп?ид=46670574)

⁴ Чашкова С. Ю. Указ. соч. – С. 84-85; Князева Е. В. Семейно-правовой договор как инструмент регулирования имущественных отношений в семейном праве // Семья и право (К 10-летию принятия Семейного кодекса РФ). – М., 2005. – С. 33; Тарусина Н. Н., Лушников А. М., Лушникова М. В. Социальные договоры в праве. – М., 2017. – 480 с. – УРЛ: www.консултант.ру

To'rtinchidan, oiladagi mulkiy munosabatlar modeli turlicha tuzilishi mumkin. Misol uchun, bu er va xotinning sheriklik munosabatlari yoki otalik munosabatlariga bog'liq bo'lishi mumkin; oila a'zolari qanchalik moyil va bir-biriga bo'lgan ishonchli yoki nizoli munosabatlari, ular o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar ko'pincha tuzilgan shartnoma mazmunida aks etadi.

Beshinchidan, shartnoma preventiv xarakterga ega. Uning maqsadi yordamga muhtoj oila a'zosini qo'llab-quvvatlash, mol-mulki adolatli taqsimlash hisoblanishi mumkin.

Bugungi kunda oilaviy shartnomalar orasida nikoh shartnomasi mulkiy munosabatlarni tartibga solish borasidagi universal va kompleks xususiyatga ega kelishuv turi hisoblanadi.

Aliment kelishuvi, er va xotin umumiy mulkini buzish to'g'risidagi shartnoma kabilar faqatgina muayyan xususiy masalalarni hal etishga qaratiladi. Quyida nikoh shartnomasini

Nikoh shartnomasiga oid qoidalar O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 29-36-moddalarida o'z aksini topgan. Nikoh shartnomasi, uning sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarning darajasini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, aksariyat davlatlar tomonidan er va xotinning mulkiy munosabatlarining muhim tartibga soluvchisi sifatida tan olingan⁵. Nikoh shartnomasining predmeti bo'lib – er va xotinning mol-mulki hisoblanadi. Shartnoma predmetining o'ziga xos ajralib turuvchi xususiyati u er-xotinning mavjud amaldagi shu bilan bir qatorda kelajakda yuzaga kelish mumkin bo'lgan mol-mulki yuzasidan tuzulishi mumkin.

A.N.Levushkin nikoh shartnomasining oilaviy huquqiy mansubligini belgilaydigan bir qator xususiyatlarini keltirib o'tadi: nikoh shartnomasida to'lanadigan va tekin tamoyillarning uyg'unligi, shartnomani qoplashning fuqarolik prezumpsiyasini qo'llashning mumkin emasligi (Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 393-moddasi); nikoh shartnomasini tuzishda shartnoma erkinligi prinsipi mazmunining shartnoma bo'yicha kontragentni tanlash erkinligi kabi elementining yo'qligi; fuqarolik-huquqiy shartnomalar orasida analoglarning yo'qligi; nikoh shartnomasi taraflari bir-birlari bilan nikoh, sevgi, o'zaro jalb qilish (iqtisodiy va huquqiy emas) asosidagi shaxsiy, hissiy munosabatlar bilan bog'langan⁶.

Nikoh shartnomasining maqsadi – er-xotinning mulkiy masalalarini tartibga solishdan iborat. Mazkur shartnoma ajrashish jarayonida sud huquq protsessini engillashtirishi mumkin. Shartnomaning ahloqiy aspekti uzoq payt muhokama va tortishuvlarga sabab bo'lmoqda.

Nikoh shartnomasining quyidagi yuridik belgilari mavjud⁷:

- nikoh shartnomasi – bu kelishuv
- sub'ekt tarkibi – nikohlanuvchi shaxslar yoki er va xotin
- shartnoma mazmuni – er-xotinning mulkiy huquqi va majburiyatini belgilash
- shartnoma shartini amal qilishi - nikoh mobaynida yoki uni bekor qilgandan so'ng nikoh bilan bog'liq o'zaro ishonchga asoslanganlik.

Shartnoma huquqining umumiy holatlari nikoh shartnomasiga o'z ta'sirini o'tkazadi va bu bilan fuqarolik huquqiy shartnoma hamda nikoh shartnomasi o'rtasida aloqadorlik mavjud. Shunga qaramasdan, nikoh shartnomasining o'ziga xos bo'lgan mustaqil va aralash shartnoma turi ekanligi kompleks xarakterda ekanligi bilan ajralib turadi. Nikoh shartnomasining kompleks xarakterdagi uning er-xotinning mulkiy rejimini o'rnatish va o'zgartirish, er-xotinning bir-biriga ta'minot berish shartlarini belgilanligi bilan ifodalanadi.

⁵Тагаева С.Н. Правовое регулирование брачных отношений: Дис. ... канд. юрид. наук / Кыргызско-Российский Славянский ун-т. - Бишкек, 2007. - 151 с.

⁶ Левушкин А. Н. Брачный договор в Российской Федерации, других государствах – участниках Содружества Независимых Государств и Балтии : учебнопрактическое пособие. М. : Юстицинформ, 2012.

⁷ Левушкин А.Н. Брачный договор в РФ, других государствах-участниках СНГ и Балтии. Учебно-практическое пособие. 11 б.

Bugungi kunda, MDH mamlakatlarida nikoh shartnomasini tuzgan nikohlanuvchilar va fuqarolarning soni juda kam. Ushbu institut yuz yildan ortiq vaqtdan beri mavjud bo'lgan Yevropa va AQShda nikohlanuvchilarning kamida 70% rasmiy shartnomalar imzolaydi, Rossiya Federatsiyasida bu ko'rsatkich 3-5% dan oshmaydi va ularning aksariyati ajrashmoqchi bo'lganlar va ular shunchaki mulkni taqsimlash bo'yicha uzoq sud jarayonlaridan qochish uchun shartnoma tuzadilar⁸.

Turli mamlakatlarda nikoh shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, Germaniyada nikoh shartnomasining tuzilishi, o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi nikoh davrida istalgan vaqtda amalga oshirish mumkin. Lotin Amerikasi, Braziliya va Kolumbiya kabi mamlakatlar qonunchiligi, aksincha, nikohdan keyin nikoh shartnoma tuzish taqiqlaydi. Gollandiyada nikoh shartnomasi faqat sud ishtirokida o'zgartiriladi.

AQSh, Kanada, Fransiya, Germaniya kabi ko'plab xorijiy davlatlarning qonunchiligi nikoh shartnomasida oiladagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni aks ettirish imkoniyatini istisno etmaydi. Bu fakt nikoh shartnomasiga bo'lajak er va xotinning mulkiy holati bilan bog'liq bo'lmagan turli qoidalarni kiritish imkonini beradi. Bunga misol qilib, er va xotinga, masalan, bolalar tarbiyasi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan nikoh shartnomasini tuzishga imkon beradigan Angliya-Amerika huquqiy tizimini keltirish mumkin⁹. G'arb mamlakatlarida nikoh shartnomasining tuzilishi boshqacha tartibga solinadi, bu esa er va xotining ularning shaxsiy munosabatlarining deyarli barcha jihatlarini tartibga solish imkonini beradi. Masalan, AQShda uchinchi shaxslar bilan munosabatlarni hal qilish huquqini beradi (bolalar, ota-onalar, qarindoshlar va hokazo.) Germaniyada nikoh shartnomasi nafaqat nikohning istalgan vaqtida tuzilishi mumkin, balki shuningdek, har qanday vaqtda er va xotin tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. O'zgartirish yoki tugatish notarial tasdiqlangan shaklda amalga oshirilishi kerak, ya'ni, bu nikoh shartnomasining yangilanganligini anglatadi.

Ba'zi davlatlarning qonunlari, aksincha, nikoh paytida nikoh shartnomasini tuzishga yoki o'zgartirishga yo'l qo'ymaydi yoki murakkablashtiradi. Masalan, Gollandiyada nikoh shartnomasi nikoh paytida yoki undan keyin tuzilishi mumkin, ammo nikohdan keyin shartnomani tuzish yoki o'zgartirish faqat sudning roziligi bilan mumkin va agar nikoh kamida bir yil davom etayotgan bo'lsa ruxsat etiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Lotin Amerikasi mamlakatlari - Braziliya, Kolumbiyada nikoh shartnomasi faqat nikohdan avval tuzilishi mumkin. Ushbu mintaqadagi barcha davlatlardan nikoh mulkining shartnomaviy rejimi Peruda erkin tartibga solingan. Peru Fuqarolik kodeksining 296-moddasiga binoan, er va xotin nikoh paytida bir rejimni boshqasiga almashtirish huquqiga ega. Rejimni o'zgartirish to'g'risidagi shartnomaning amal qilish muddati uning notarial tasdiqlanishi va fuqarolik holati dalolatnomalariga kiritilishiga bog'liq¹⁰.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda nikoh shartnomasi faqat er va xotinning mulkiy munosabatlarini tartibga solib kelmoqda. Ta'kidlash lozimki, Oila kodeksi kuchga kirganidan boshlab mazkur norma hayotda ishlamaydigan norma bo'lib kelmoqda, chunki moddada belgilanganidek, nikoh shartnomasi faqat mulkiy huquqlar va majburiyatlarga oid masalalarni

⁸ Левушкин А.Н. Брачный договор в Российской Федерации, других государствах - участниках Содружества Независимых государств и Балтии: учебно-практическое пособие.// <https://www.litres.ru/book/a-levushkin/brachnyy-dogovor-v-rossiyskoy-federacii-drugih-gosudarstvah-uc-6054919/chitat-onlayn/>

⁹ Низамиева О.Н. Имущественные соглашения супругов в зарубежном праве // Семейное и жилищное право. 2004. Н 3. С. 25.

¹⁰ Слепакова А.В. Правоотношения собственности супругов. М.: Статут, 2005.

kiritish bilan chegaralab qo'ygan. Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda nikoh shartnomasi 2017 yilda 126 ta, 2018 yilda 219 ta, 2019 yilda 423 ta, 2020 yilda 1004 ta va 2021 yilda 2749 ta tuzilgan. Jumladan, umumiy nikoh soniga nisbatan tuzilgan nikoh shartnomalarining ulushiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, 2017 yilda jami 306 197 ta nikoh rasmiylashtirilgan bo'lsa, shu yili tuzilgan nikoh shartnomasi 00,4% tashkil etgan, 2021 yilda 305 211 ta nikoh rasmiylashtirilgan bo'lib, ularning 2749 tasi nikoh shartnomasi tuzganligini va bu foizda 0,9 ni tashkil etgan.

Agar nikoh shartnomasida ota-ona sifatida bolalarni tarbiya qilish, ta'lim berish, moddiy ta'minlash borasidagi majburiyatlar ko'rsatilishi mumkinligi belgilansa, nikohga kiruvchi shaxslar va oila qurganlar tomonidan ularning kelajakdagi o'zlari, uchinchi shaxs va farzandlarining huquqlarini himoyalovchi nikoh shartnomasini tuzish amaliyoti rivojlanadi.

Bunday amaliyot AQSh va Yevropa davlatlarida mavjud bo'lib, ularda er-xotin o'rtasida nikoh shartnomasini tuzish holatlari ko'plab uchraydi.

AQShda (27 shtatda qabul qilingan) "Nikohgacha va nikoh davridagi nikoh shartnomalari to'g'risida"gi Yagona qonunida shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solish o'z aksini topgan. Belarus davlatining Nikoh va oila kodeksining 13-moddasida shaxsiy nomulkiy munosabatlar va mulkiy munosabatlarni tartibga solishi belgilangan. Shaxsiy nomulkiy munosabatlarni kiritish, shartnoma taraflariga oilaviy munosabatlarni shartnoma orqali tartibga solishda erkinlikni yaratadi.

Shuningdek, shaxsiy nomulkiy munosabatlar sifatidagi ota-ona sifatida bolalarni tarbiya qilish, ta'lim berish, moddiy ta'minlash borasidagi majburiyatlarini belgilash imkonini yaratadi hamda ushbu munosabatlarda shartnoma institutining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oilaviy shartnoma va kelishuvlar huquqiy sohada er va xotin o'rtasidagi ham mulkiy, ham shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishning muhim vositalariga aylanib bormoqda. Ulardan foydalanish er-xotonga birgalikda yashash sharoitlarini, mulk va huquqlarni bolalarga taqsimlash shartlarini mustaqil ravishda aniqlash imkonini beradi, bu esa nizolarni kamaytirishga va nizolarni hal qilishni soddalashtirishga yordam beradi. Mazkur huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish va samarali qo'llash maqsadida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, aholining oila huquqi masalalari bo'yicha huquqiy savodxonligini va oilaviy shartnomalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan targ'ibot dasturlarini muntazam ravishda o'tkazish.

ikkinchidan, oilaviy kelishuvlar bilan bog'liq ishlarni yanada malakali ko'rib chiqish uchun ixtisoslashtirilgan sud bo'linmalarini tashkil etish yoki oilaviy masalalar bo'yicha tor ixtisoslikka ega sudyalarni tayyorlash.

uchinchidan, er va xotonga professional yordam ko'rsatadigan psixologlar va mediatorlarning oilaviy shartnomalarini tuzish jarayoniga jalb qilish.